



# Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2018 yil 1 may holatiga

## RAQAMLAR:

- Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **542 taga o'sdi**
- Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning ulushi **2,0 f.p kamaydi**
- Tugatilgan korxonalariga nisbatan yangi tashkil etilgan korxonalar soni **393 taga oshgan.**

2018 yilning yanvar-aprel oyida Viloyatda 538 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 84 taga kamaygan.


Shuningdek faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 45,3 % kamaygan hamda ularning soni 175 tani tashkil etganligini kuzatish mumkin.

Buning natijasida joriy yilning boshiga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 356 ta (3,6 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 9748 tani tashkil etgan.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy ulushi Guliston shahrida (31,8 %), Sirdaryo (15,3%), Sayxunobod (8,5 %) va Yangiyer (7,6 %) tuman shaharlarida kuzatilmoqda.

## Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda





## Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari,  
2018 yilning 1 may holatiga)

	Ro'yxatdan o'tgan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	birlikda	jamiga nisbatan %	birlikda	jamiga nisbatan %
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>10503</b>	<b>100,0</b>	<b>9748</b>	<b>100,0</b>
Guliston shaxri	3340	31,8	3105	31,8
Sirdaryo tumani	1647	15,7	1495	15,3
Sayhunobod tumani	845	8,0	831	8,5
Yangiyer shaxri	808	7,7	744	7,6
Guliston tumani	795	7,6	726	7,4
Mirzaobod tumani	758	7,2	713	7,3
Boyout tumani	801	7,6	724	7,4
Xovos tumani	506	4,8	465	4,8
Oqoltin tumani	391	3,7	370	3,8
Sardoba tumani	369	3,5	351	3,7
Shirin shaxri	243	2,4	224	2,4

### Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlar va fao'liyatsizlarning ulushi, % da




Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlarning ulushi 92,8 % ni, shu bilan birga jami korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulushi 7,2 % ni tashkil etganligini ko'rsatmoqda va bu ko'rsatkich esa yil boshiga nisbatan taqqoslanganda 0,2 f.p. ko'paygan.


■ faoliyat ko'rsatayotganlar    
 ■ faoliyatsizlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 26,6 % savdoda, 11,6 % sanoatda, 8,7 % qurulishda, 12,0 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 5,5 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 5,6 % tashish va saqlash, 1,6 % axborot va aloqa, 1,3 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 27,1 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) % da**




**Ro'yxatdan o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda**




2018 yil yanvar-aprel holatiga 538 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 13,5 % ga kamaygan. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Guliston shaxrida (137 ta), Sirdaryo (75 ta), Sayhunobod (55 ta) va Guliston tumanlarida (43 ta) tashkil etilgan. Eng kam Shirin shaxrida (11 ta), Sardoba (29 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

### Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (141 ta), sanoatda (80 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (106 ta) va qurilishda (68 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (6 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (6 ta) va tashish va saqlashda (14 ta) tashkil etilgan.

### Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining ulushi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda (-1,3 f.p), axborot va aloqada (-0,1 f.p.dan), tashish va saqlashda (-0,2 f.p.), boshqa faoliyat turlarida (-0,2 f.p) kamayganligi, buning natijasida, savdoda (+0,1 f.p), sanoatda (+0,1 f.p.), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (+0,3 f.p.), qurilishda (+0,9 f.p.), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda (+0,4 f.p.), ulushining o'sishiga olib keldi.


**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan ulushi, foiz punktda**

Iqtisodiy faoliyat turlari nomi	01.05.2018 y.	01.05.2017 y.	farqi (+-)
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1,3	2,6	-1,3
Savdo	26,6	26,5	0,1
Axborot va aloqa	1,6	1,7	-0,1
Sanoat	11,6	11,5	0,1
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	12,0	11,7	0,3
Qurilish	8,8	7,9	0,9
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	5,5	5,1	0,4
Tashish va saqlash	5,6	5,8	-0,2
Boshqa turlari	27,0	27,2	-0,2

**Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari).**

2018 yil 1 may holatiga 7829 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 2784 ta, oilaviy korxonalar – 70 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 4667 ta, aktsiyadorlik jamiyatlari – 20 tani va boshqalar 288 tani tashkil etadi.


## Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar-xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning tashkiliy huquqiy shakllari bo'yicha taqsimlanishi, birlikda




## Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

2018 yil 1 may holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 84 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 17 taga yoki 20,2 % ga o'sgan. Shuningdek Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalaridan 60 tasi qo'shma korxonalar, 24 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda




## Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi Sirdaryo tumani 36 ta (40,4 %i), Guliston shaxri 22 ta (24,7 %), Yangiyer shaxri 9 ta (10,1 %) his-salariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Xovost tumani 1 ta (1,1 %), Sardoba tumani 1 ta (1,1 %), Guliston tumani 1 ta (1,1 %) hissalariga tog'ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bi-lan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining hududlar kesimidagi soni, birlikda



Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 may holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 61 ta (72,5 %), savdoda 9 ta (10,7 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida esa 4 ta (4,8 %) tashkil qilgan, eng kamlari esa tashish va saqlashda 3 ta (3,6 %), boshqa tarmoqlar 3 ta (3,6 %), va qurilishda 4 ta (4,8 %) tashkil qilgan. Shundan ko'rinib turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri kelarkan. Shuningdek tashkil etilmaganlar, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

### Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yilning yanvar-aprel oyida xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalarining soni 4 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 taga ko'paygan.


Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoatda 4 ta, korxonalar yangi tashkil etilgan.



## Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni


2018 yil 1 may holatiga Viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 7786 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 may holatiga qaraganda 8,2 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi ya'ni 2652 tasi (34,1 %) Guliston shahriga, 1252 tasi (16,1 %) Sirdaryo, 666 tasi (8,5 %) Sayxunobod tumanlari his-salariga to'g'ri keladi.

### Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni dinamikasi, birlikda




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 7786 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2582 tasi (33,2 %) – savdoda, 1109 tasi (14,2 %) - sanoatda, 855 tasi (11,0 %) - qurilishda, 1146 tasi (14,7 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 533 tasi (6,8 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 541 tasi (6,9 %) - tashish va saqlashda, 147 tasi (1,9 %) - axborot va aloqa sohasida, 78 tasi (1,0 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, shuningdek 795 tasi (10,3 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yil yanvar-aprel holatiga 494 ta yaqin kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 22,9 foizga kamaygan. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Guliston shahrida (112 ta), Sirdaryo (69 ta), Sayxunobod (55 ta) va Guliston tumanlarida (39 ta) tashkil etilgan. Eng kam Shirin shahrida (11 ta), Sardoba (26 ta) tumanida tashkil etilgan.


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (141 ta), sanoatda (80 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (106 ta) va qurilishda (68 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (6 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (6 ta) hamda tashish va saqlashda (14 ta) tashkil etilgan.



## Oilaviy korxonalar soni


Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2018 yilning 1 may holatiga 78 tani tashkil etib, ulardan 70 tasi yoki 89,7 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha **15,4** %ga oshganligini ta'kidlash lozim.

### Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarining Iqtisodiy faoliyat turlari ke- simida qaralganda oilaviy korxonalarining 42,3 % yoki 33 tasi sanoat, 20,5 % yoki 16 tasi savdo, 15,4 % yoki 12 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 12,8 % yoki 10 tasi qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi, hamda 9,0 % yoki 7 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.

### Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Viloyat statistika boshqarmasi  
Statistik registrlarni yuritish bo'limi  
boshlig'i

Nashr uchun mas'ul: **K.Yusupov**  
(0367) 225-31-00

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat  
registri (KTYDR) ma'lumotlari asosida  
tayyorlangan